PEDAGOGIKA

UDK: 378.147:005.911 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a16**

TALABALARNING TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHNING LOKAL-MODULLI TEXNOLOGIYASI

ЛОКАЛЬНО-МОДУЛЬНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО РАЗВИТИЮ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ

LOCAL-MODULAR TECHNOLOGY OF ORGANIZING INDEPENDENT WORK TO DEVELOP STUDENTS’ ENTREPRENEURIAL SKILLS

Karimova Shoira Baxtiyarovna[1]

[1]**Karimova Shoira Baxtiyarovna** – Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya

OTMlarda mustaqil ishlarning asosiy maqsadi fasilitator-o‘qituvchi rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv materiallarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Maqolada bu mavzudagi ayrim qarashlar va yechimlar o‘z ifodasini topgan.

Аннотация

Основной целью самостоятельной работы в высших учебных заведениях, является формирование и развитие знаний, навыков и умений, необходимых студенту для самостоятельного освоения определенных учебных материалов под руководством и наблюдением фасилитатора-преподавателя. В статье высказаны некоторые взгляды и решения по данной теме.

Abstract

The main purpose of independent work in the continuing education system, especially in HEIs, is to form and develop the knowledge, skills and abilities necessary for the student to independently complete certain educational materials under the guidance and supervision of a facilitator-teacher. Some views and solutions on this topic are expressed in the article.

Kalit so‘zlar: *fasilitator-o‘qituvchi, mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fanning ishchi dasturi, ixtiyoriy mustaqil ish.*

Ключевые слова и выражения: *фасилитатор-педагог, формирование навыков, самостоятельное мышление, рабочая программа науки, добровольная самостоятельная работа.*

Key words: *facilitator-teacher, independent thinking, creative research, working program of science, voluntary independent work.*

KIRISH

Uzluksiz ta’lim tizimida, xususan, OTMlarda mustaqil ishlarning asosiy maqsadi fasilitator-o‘qituvchi rahbarligida va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv materiallarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Talabalarning bilim egallashini faollashtiradigan, barcha uchun qulay bo‘lgan usul va vositalardan foydalanilgan holda pedagogik jarayonni tashkil qilish ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatib, ijodiy izlanishga yo‘naltiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Metodist olimlar mustaqil ishlardan dars jarayonida keng foydalanishni doimo yoqlab chiqqanlar. Chunki bilim oluvchilarni bilimlarni egallash va mustaqil fikrlashga o‘rgatish, avvalambor, mustaqil ishlarni bajarish oldida turgan muammo va masalalarning yechimini topish jarayonida shakllanadi. Ba’zi olimlar mustaqil ishlar deganda o‘qituvchining bevosita yordamisiz, ammo uning nazorati ostida bajariladigan vazifalarni tushunishsa, boshqalari bilimlarni amaliyotda qo‘llashni talab qiladigan ishlar deb, bilishadi. Ta’kidlash joizki, mustaqil ishlar bilim oluvchilarning aqliy imkoniyatlarni namoyon qilishga imkon beradigan, ularning bilvosita va bevosita ishtirokida, ammo bevosita yordamisiz nazariy-amaliy materiallar ustida bajaradigan vazifalari hisoblanib, bilim oluvchilarning nafaqat bilim darajalari, balki o‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay bilishlari hamda mustaqil mantiqiy fikrlash darajalarini aniqlash va shakllantirish imkoniyatini beradigan ongli faoliyatdir. Zamonaviy ta’lim jarayonida mustaqil ishlar tasnifiga oid bir qancha qarashlar mavjud. Metodist olimlar guruhlarga ajratishda mustaqil ishlarning u yoki bu jihatlariga e’tibor qaratishadi. Masalan, N.G. Kazanskiy va T.S.Nazarovlar mustaqil ishlarni didaktik maqsadlariga ko‘ra 3 guruhga ajratadilar:

1. Yangi materiallarni qabul qilishga yo‘naltirilgan mustaqil ishlar;
2. Yangi bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan mustaqil ishlar;
3. Mahorat va malakani mustahkamlash, bilimlarni kengaytirish va shakllantirishga yo‘naltirilgan mustaqil ishlar

Faoliyat mazmuni bo‘yicha ham mustaqil ishlarni 3 guruhga ajratadilar:

1. Berilgan namuna bo‘yicha mustaqil ishlar;
2. Qoida asosidagi mustaqil ishlar;
3. Ijodiy mustaqil ishlar;

Bu tasnif mustaqil ishlar va o‘quv-biluv faoliyati mazmunini o‘zida aks ettiradi. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan mustaqil ishlarni tavsiflashda biz faoliyat mazmuniga asoslandik. Ya’ni:

1. Reproduktiv mustaqil ishlar;
2. Rekonstruktiv mustaqil ishlar:
3. Ijodiy mustaqil ishlar;

Uzluksiz ta’lim tizimi jarayonida bilim oluvchilarni mustaqil fikrlashga, ongli faoliyat yuritishga o‘rgatish kelajakda ularning jamiyatimiz va davlatimiz taraqqiyoti uchun zarur, barkamol shaxs sifatida shakllanishida bosh omil bo‘lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada talabalarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ishlarni tashkil etishning lokal-modulli texnologiyasini rivojlantirishga ayrim qarashlar va yechimlar masalasiga e’tibor qaratilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy ta’lim tizimida mustaqil ishlarni tashkil etishning mazmunini ishlab chiqdik:

Oliy ta’lim	Talabalarga mustaqil ishlarga oid kasbiy sifatlarni takomillashtirish bo‘yicha yondashuvlar tavsiya etiladi, ularning mustaqil ishlari o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinib, baholanadi, tegishli tavsiya va xulosalar bera oladi. O‘quvchilarning o‘ziga xos kasbiy sifatlari shakllantirishga alohida e’tibor beriladi. Bunda mutaxassislikka oid bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy layoqatning shakllantirilishiga alohida e’tibor beriladi.	Mutaxassislikka oid bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy layoqat shakllantiriladi.

Ma’lumki, ta’limni tashkil etish jarayoni juda murakkab bo‘lib, unga asosan ta’limning asosiy dars shaklidan tashqari o‘quvchining mustaqil ravishda bilimlarini o‘zlashtirishi katta ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, o‘qituvchi to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib, bilim oliy jarayonini tezlashtirishga yordam bersa, bilim oluvchining mustaqil intilishi evazigagina bilimni mukammal o‘rganishi mumkin bo‘ladi.

O‘quv jarayonida bajariladigan mustaqil ishlarga asosan qo‘yidagilar kiradi:

☐ Yozma va og‘zaki shaklda mashqlarni, uy vazifalarini bajarish;
☐ Mustaqil mavzular bo‘yicha matnlar tuzish, o‘qib va so‘zlab berish, tahlil qilish:
☐ Noma’lum matnlarni izohlash;
☐ Dars vaqtida og‘zaki va yozma mashq bajarish;
☐ Lingafon tizimi, video va kompyuter texnologiyalari yordamida ishlash;
☐ Amaliy darslarda o‘quvchilarning bilim saviyasini aniqlash maqsadida o‘zaro suhbatlarni uyushtirish;
☐ Yozma ishlar (OO‘YU talabalari uchun referat, kurs va malakaviy-bitiruv ishlari) ni bajarish, nazorat savollari va testlarning javoblarini tayyorlash;
☐ Maxsus adabiyotlar bilan ishlash(uzluksiz ravishda), takrorlash va boshqalar.
☐ Oliy ta’lim amaliyotida fasilitatsiya ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil ishlarni bajarish jarayonida talabalar bilan o‘zaro munosabatda ularning o‘z fikrlari, munosabatlarini o‘qituvchining fikri, munosabatidan qat’iy nazar bildira olishlaridadir. Buni K.Rodjersning mulohazalari bilan ifodalaydigan bo‘lsak, “o‘rganishga o‘rgatish” demak. Oliy ta’lim tizimida talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda qo‘yidagi jihatlar e’tiborga olinishi lozim:
☐ Muayyan fanning o‘ziga xos xususiyati va o‘zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
☐ Talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi(tayanch bilimi);
☐ Fanning axborot manbalari bilan ta’minlanganlik darajasi;
☐ Talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi;

☐ Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi va b.

Talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga ongli, tizimli va ijodiy yondashishga shart-sharoitni ta'minlash kerak bo‘ladi. TMIni tashkil etishda talabaning akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda ayrim shakllardan foydalanish mumkin. Yangicha yondashuv jarayonida bilim talabalarning o‘z ijtimoiy tartiblari asosida paydo bo‘ladi va xulq-atvor shaklining ham o‘zgarishiga ta'sir qiladi. Mustaqil fikrlarni bildirar ekan, talaba ta'lim jarayonining faqat subyekti sifatida ham namoyon bo‘ladi, ya'ni teng huquqli ta'lim dialogini vujudga keltiradi.

Ayniqsa, ta'limni muammoli tashkil etish talaba o‘quv-biluv faoliyatiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ushbu jarayonni yanada muvaffaqiyatli chiqishi uchun psixologik asosga e'tiborni qaratish kerak.

O‘zlashtirishning keyingi darajalarida o‘quvchilardan olgan bilimlarini amalga tatbiq etish, ma'lum natijalarini qo‘lga kiritish, to‘ldirish, boyitish, o‘zgartirish, o‘zining mustaqil nuqtayi nazariga ega bo‘lish talab etiladi. Mazkur o‘zlashtirish darajalari uchun muammoli yondashuv ahamiyatli hisoblanadi.

Mashg‘ulotni muammoli tarzda tashkil etish uchun birinchi galda talaba bahs-munozara yuritishga fikrlarini erkin bayon etishga, tanqidiy munosabat bildirishga tayyor bo‘lishi lozim. Buning uchun kutiladigan muammolarga bog‘liq bo‘lgan tushunchalar yuzaga chiqariladi. So‘ngra muammoga aniqlik kiritilib, ma'lum xulosalar chiqariladi. Bu jarayon fikr-mulohazalarda ifodalanadi. Ta'lim jarayoniga o‘ziga xos psixologik jihatdan yondashuv talabalarni mustaqil fikrlashga, o‘z fikrini erkin bayon etishga undaydi. Shu bilan birga, qo‘yiladigan muammoni mustaqil ijodiy hal etish uchun sharoit yaratadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Pedagogika OTM talabalarida pedagogik komponentlardan biri, bu tadbirkorlik fazilatining ma'lum darajada yuqori bo‘lishi taqozo qilinadi. Bundan tashqari, amalga oshirilayotgan iqtisodiy o‘zgarishlarga ko‘ra bir nechta fanlarga oid bilimlarning integratsiyasi, o‘zaro aloqadorligi va undan foydalanish metodikasini o‘z ichiga oladi. Har bir talaba o‘z imkoniyati, asosan bilimga bo‘lgan intilishiga qarab, o‘zining bilimlar manbaiga ega bo‘ladi. Bu bilimlar strukturasiga ko‘ra, texnik va texnologik mazmundagi, psixologik va pedagogik, falsafiy, fizik-matematik, iqtisodiy, amaliy va boshqa imkoniyati, asosan bilimga bo‘lgan intilishiga qarab o‘zining bilimlar manbaiga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr. O‘RQ-595-son. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son)

2. Alvested M. Pedagogy and interdisciplinarity: Research on the reformed kindergarten teacher education (KTE) in Norway

3. Azizova.Z.F. Qo‘g‘irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish Avtoref. p.f.n T:2020-52b

4. Azarov Yu.P. Masterstvo vospitatelya. M.: “Prosvesheniye”,1971.-126 b

5. Azizxodjayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003. -175-b.

6. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. Toshkent.: “Fan va texnologiya”. 2008. -132.b.

7. Saidqulov Sh. Uzluksiz pedagogik ta'lim va malaka oshirish muammolari. – Samarqand: SamDu, 1996.-76b

8. Выготский, Л. С. Педагогическая психология [Текст] / Л. С.
Выготский. – Москва: Астрель, 2012. – 480 с.

9. Гогоберидзе, А. Г. Дошкольная педагогика с основами методик воспитания и обучения [Текст] / Под ред. А. Г. Гогоберидзе, О. В.

10. Солнцевой. – Санкт-Петербург, 2015. – 464 с.